


TOSHKENT VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar)

2019 yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 293,9 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86,5 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 114,4 mln. AQSH dollarga (114,0 %ga oshgan) va import hajmi 179,5 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 72,4 %) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 65,1 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)



So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-


ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari
(o‘tgan yilga nisbatan,%)



Shu bilan birga ta’kidlab o‘tish kerakki, 2019 yilning yanvar oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 61,0 mln. AQSH dollarga ko‘proq eksport qilindi va 114,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 179,5 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lib, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 75,4 mln. AQSH dollariga ko‘proqdir. Bu asosan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlariga to‘g‘ri keldi.

2018-2019 yillar yanvar oylarida tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi
(mln. AQSH dollari)



2019 yil yanvar oyida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi 2018 yilning yanvar oyidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Qozog'iston	63,3	11,5	51,8	21,6
Turkiya	56,0	49,6	6,4	19,0
Xitoy	51,0	20,6	30,4	17,4
Rossiya	41,2	9,0	32,2	14,0
Koreya Respublikasi	15,0	1,3	13,7	5,1
Braziliya	12,0	0,0	12,0	4,1
Tojikiston	7,4	0,8	6,6	2,5
Angliya	5,0	5,0	0,0	1,7

(mln. AQSH dollar)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Singapur	4,9	4,8	0,1	1,7
Germaniya	4,8	0,2	4,6	1,6
Hindiston	4,4	0,2	4,1	1,5
Italiya	3,5	0,1	3,4	1,2
BAA	2,9	2,9	0,0	1,0
Ukraina	2,8	1,7	1,1	0,9
Afg'oniston	2,4	2,4	0,0	0,8
Латвия	1,9	0,0	1,9	0,6
Швейцария	1,7	0,0	1,7	0,6
Latviya	1,4	0,0	1,4	0,5
Eron	1,3	0,3	1,0	0,4
Indoneziya	1,1	1,0	0,0	0,4
Belarusiya	1,0	0,7	0,3	0,3
Ekvador	0,9	0,0	0,9	0,3


Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 39,9 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 54,0 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar oyida 51,6 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 60,1 %ga yetdi.

EKSPORT

2019 yil yanvar oyida eksport hajmi 114,4 mln. AQSH dollarga (114,0 % ga oshgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,4 % ulushga ega, bular asosan qora va rangli metallar (15,3 %), boshqa turdagi tovarlar (66,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,3 %), paxta tolasi (0,2 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,3 %), shuningdek, mashina va uskunalar (6,6 %), xizmatlar (0,6 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSH dollari)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	114,4	214,0	100,0	25,0	108,2	100,0	89,4	294,7	100,0
Paxta tolasi	0,04	13,0	0,03	0,04	13,0	0,2	0,0	0,0	0,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	4,7	45,2	4,1	1,3	38,6	5,3	3,4	48,4	3,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	1,9	79,3	1,7	1,3	149,4	5,3	0,6	38,7	0,7
Qora va rangli metallar	81,6	357,4	71,3	3,8	46,8	15,3	77,8	531,9	87,0
Mashina va asbob-uskunalar	3,8	208,3	3,3	1,7	430,5	6,6	2,1	147,9	2,3
Xizmatlar	0,7	134,2	0,7	0,1	162,4	0,6	0,6	129,0	0,7
Boshqalar	21,6	143,4	18,9	16,7	169,7	66,7	4,9	93,7	5,5

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar oyi davomida eng yuqori o'sish sur'atlari qora va rangli metallar, mashina va abob-uskunalariga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan,%)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 114,0 %ga oshgan.

Xizmatlar eksporti hajmi 0,7 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,7 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34,2 %ga oshgani kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning yanvar oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning yanvar oyiga nisbatan 61,0 mln. AQSH dollariga ko'p eksport qilindi va 114,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2018-2019 yillar yanvar oyida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi
(mln. AQSH dollari)



Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2019 yil yanvar, %)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 61,4 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar oyida jami 3,5 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 1,3 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati - 76,9 %ga kamaygan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar oyida 3,3 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 1,1 mln. AQSH dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 ming tonnaga kam miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 0,1 ming tonna meva va rezavorlar 0,1 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 ming tonnaga kamdir.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, 2018 yil davomida viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib borgan. Lekin, 2019 yilning yanvar oyida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 1,3 mln.AQSH dollariga teng (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 76,9 %ga kamaygan).

IMPORT

Joriy yilning yanvar oyida import hajmi 179,5 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 72,4 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (29,4%), oziq-ovqat mahsulotlari (21,0 %) hamda boshqa mahsulotlar (31,6 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSH dollari)




Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	179,5	172,4	100,0	92,3	173,9	100,0	87,2	170,9	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	37,6	223,9	21,0	20,3	165,5	22,0	17,3	382,6	19,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	13,5	121,1	7,5	4,5	172,4	4,9	9,0	105,3	10,3
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1,4	42,2	0,8	1,4	41,2	1,5	0,1	112,9	0,1
Qora va rangli metallar	14,8	92,4	8,3	10,9	85,1	11,8	3,9	121,6	4,5
Mashina va asbob-uskunalar	52,8	136,3	29,4	8,1	75,6	8,8	44,7	159,5	51,2
Xizmatlar	2,5	425,3	1,4	0,0	0,0	0,0	2,5	424,9	2,9
Boshqalar	56,8	327,6	31,6	47,1	418,9	51,0	9,7	159,4	11,1


Import qilingan tovar va xizmatlarning 2019 yil yanvar va o'tgan yilning mos davridagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, o'sish sur'ati 56,4 %ga kamaygan.

Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi
(o'tgan yilga nisbatan, %)




Xizmatlar importi hajmi 2,5 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,4 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 325,3 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

2018-2019 yillar yanvar oyida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi
(mln. AQSH dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning yanvar oyi mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,4 mln. AQSH dollarga ko'p import qilindi va 179,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2019 yil yanvar, %)



Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarining eksport-importi
(2019 yil yanvar holatiga)

	Eksport-import qilgan korxonalar soni	mln. AQSH doll.	O'tgan yilning shu davriga nisbatan foiz xisobida
Eksport	46	16 371,6	107,2
Import	119	47 448,0	218,5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




2019 yilning yanvar oyida viloyatga 56 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Braziliya va Tojikiston hamkor davlatlarining jami import hajmi 146,8 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 81,8 %ini tashkil qiladi

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar viloyatimizga olib kirilayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-86-59**